

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

**PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

SHIRINOV SARDORBЕК AVAZOVICH

**BUXORO XONLIGI (AMIRLIGI) DAVLAT BOSHQARUVINING
SIYOSIY-HUQUQIY ASOSLARI TARIXI
(XVI-XX asr boshlari)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата доктора философии (PhD)

Contents of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Shirinov Sardorbek Avazovich

Buxoro xonligi (amirligi) davlat boshqaruvining siyosiy-huquqiy asoslari tarixi
(XVI-XX asr boshlari)..... 5

Ширинов Сардорбек Авазович

История политико-правовых основ государственного управления
Бухарского ханства (эмирата) (XVI – начало XX вв.)..... 25

Shirinov Sardorbek Avazovich

The history of the political and legal foundations of state governance in the
Bukhara Khanate (emirate) (16th – early 20th centuries) 49

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of publications..... 54

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

**PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

SHIRINOV SARDORBЕК AVAZOVICH

**BUXORO XONLIGI (AMIRLIGI) DAVLAT BOSHQARUVINING
SIYOSIY-HUQUQIY ASOSLARI TARIXI
(XVI-XX asr boshlari)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.A.PhD/Tar1722 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

(v) Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (idu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

rahbar:

Berdiyev Jamshid Panjiyevich
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xudoyqulov To'liqin Do'stoboyevich
tarix fanlari doktori, professor

Xoliqulov Ahmad Boymahammatovich
tarix fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "17" 01 soat 9:00dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04, faks: (+998 75) 220-02-10, e-mail: kasu_info@edu.uz). Qarshi davlat universiteti.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin 3/1 -raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "5" yanvar kuni tarqatildi
(2026-yil "5" yanvar 1 raqamli reyestr bayonnomasi).



B.J. Eshov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, t.f.d., professor

N.N. Rajabova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, t.f.n., dotsent

Y.A. Ergasheva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Davlat boshqaruvi qadimgi zamonlardagi siyosiy tafakkurdan tortib, zamonaviy “yaxlit boshqaruv” konsepsiyasigacha turli nazariyalar orqali shakllanib, doimiy ravishda takomillashtirib boriladigan bir mexanizmdir. Bunday nazariyalar davlatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalarini izohlash, ushbu funksiyalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlashga urg‘u beradi. Hozirgi kunda modernizatsiya jarayonlari, globallashtirish va texnologik taraqqiyot davlat boshqaruviga yangicha talablar qo‘ymoqda. Ayniqsa, innovatsion yondashuvlar, jamoatchilik ishtiroki hamda tezkor, shaffof qarorlar qabul qilish jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida e‘tirof etilmoqda. Shu jihatdan qaraganda, davlat boshqaruv tuzilmalarining tarixan qanday tarzda shakllanib kelganligi, uning moslashuvchanlik xarakteri, davlat boshqaruvidagi har bir idoraning bajaradigan o‘ziga xos amallaridan kelib chiqib tahlil qilish masalalari bugun dolzarbligicha qolmoqda.

Jumladan, Buxoro xonligining markaziy, mahalliy-ma‘muriy boshqaruvning quyi va yuqori idoralarini, davlat boshqaruvidagi unvon va mansablarni, shuningdek, diniy tashkilotlar boshqaruvini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Bu masalalar jahon tarixshunosligidagi davlat boshqaruvi va ijtimoiy tizimlarning o‘zgarishlari va rivojlanishini tushunishga yordam beradi. O‘zbekistonning xalqaro aloqalari geografiyasining kengayishi, ayniqsa, Rossiya, Xitoy, Yaponiya, AQSH va bir qator Yevropa mamlakatlarining yetakchi olimlari tomonidan Buxoro xonligidagi davlat boshqaruvi sohasidagi tadqiqotlariga alohida e‘tibor qaratilayotgani va bu tadqiqotlar, mavjud ilmiy qarashlar, manbalar, asosiy yondashuvlar dinamikasi va qiyosiy tahlil orqali ushbu mintaqalardagi davlat boshqaruvi usullarini aniqlash va umumlashtirishga yordam beradi.

O‘zbek davlatchiligi tarixini ilmiy tadqiq etish, unga haqqoniy baho berish va to‘plangan tajribadan ijodiy foydalanish mustaqil O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyotida muhimdir. Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Yangi jamiyat qurilishi jarayonida xalqimizning tarixidagi boy madaniyat va bunyodkorlik an‘analarini o‘rganish va ulardan foydalanish katta ahamiyatga ega”¹. Shuning uchun XXI asr boshlariga kelib jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi bo‘lgan O‘zbekiston tarixini, xususan, o‘zbek davlatchiligi tarixini har tomonlama o‘rganish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasida Ma‘muriy islohotlar konsepsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF–6166-son “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi 4947-son Farmonining 1-ilovasida keltirilgan. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-sonli Farmoni.

farmoni, “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi PF–5997-sonli farmoni, hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2019-yil 5-yanvardagi 2ab22-x topshirig‘i asosida “O‘zbekiston tarixini o‘rganish ishlarini samarali” tashkil etishga qaratilgan “Yo‘l xaritasi”da, shuningdek, ushbu sohaga oid me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda ko‘rsatilgan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mavzu tarixshunosligiga oid tarixiy asarlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, adabiyotlarda bu masala mustaqil obyekt sifatida to‘laqonli ravishda yoritilmagan. Ammo mavzuning ayrim jihatlar tarixiy adabiyotlarda o‘z aksini topadi. Shuning uchun ularni davriy jihatdan shartli ravishda bir necha guruhga bo‘lish mumkin: Birinchi guruhga Rossiya imperiyasi va sovet hokimiyati yillarida chop etilgan nashrlar; ikkinchi guruhga O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida nashr etilgan adabiyotlar va amalga oshirilgan tadqiqotlar; uchinchi guruhga esa xorijlik olimlarning Buxoro xonligi (amirligi) tarixiga oid adabiyotlarni kiritish mumkin.

Shu bilan birga qayd etish lozimki, ushbu adabiyotlar ilmiy-uslubiy va konseptual jihatdan ham farqlanadi.

Birinchi guruh adabiyotlariga rus harbiylari, sayyohlar, elchilar va rossiyalik tadqiqotchi olimlarning asarlariga taalluqli bo‘lib, XX asrda chorizm va sovet tarixshunosligida shayboniylar davri masalasi sharqshunos olimlarda katta qiziqish uyg‘otdi, buning asosiy sababi temuriylar davridan keyingi tarixiy jarayonlar xususiyati bilan bog‘liq edi².

Shu kabi tadqiqotlar imperiya ma‘muriyati vakillaridan A. Grebenkin, N. Xanikov, A. Xoroshxin va boshqalarning asarlarida ham aks etadi. Buxoro xonligi aholisining xo‘jalik va maishiy hayotiga doir tadqiqotlar ayrim rus sharqshunoslari asarlarida umumiy holatda yoritiladi³.

² Неболсин П.И. Очерки торговли России с Средней Азией / Зап. РГО. Кн. X. – Санкт-Петербург, 1855 – С. 1-355; Ўша муаллиф. Следование караванов из Бухары в Россию и обратно (Очерки торговли России со странами Средней Азии, Хивой, Бухарой и Кокандом). – Санкт-Петербург, 1856. – 376 с.; Борнс А. Путешествие в Бухару. Ч.И. – Москва, 1848. – 528 с.; Ч.ИИ. – Москва, 1849. – 628 с.; Вамбери А. Путешествие в Средней Азии. – Санкт-Петербург, 1865. – 348 с.; Грулев М.В. Амударя. – Ташкент, 1900. – 92 с; Губаревич-Радобыльский А. Экономический очерк Бухары и Туниса. – Санкт-Петербург, 1905. – 372 с.; Костенко Л.Ф. Путешествие в Бухару русской миссии в 1870 г. – Санкт-Петербург, 1871. – 13 с.; Семёнов-Тян-Шанский В.П. Россия. Полное геогр. Описание. Т.19. Туркестанский край. – Санкт-Петербург, 1913. – 860 с.; Яворский И.Л. Путешествие русского посольства по Афганистану и Бухарскому ханству в 1876-1879 гг. Т.1. – Санкт-Петербург, 1882. – 387 с.

³ Гребенкин А.Д. Таджики. Узбеки. / Русский Туркестан. Сборник. – Москва, 1873. – С. 120; Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. – СПб, 1843. – С. 192; Хорошхин А.П. Сборник статей касающихся Туркестанского края. – СПб, 1876. – С. 304;

Tadqiqotchilardan N. Veselovskiy, M. Venyukov, A. Semyenov, N. Pavlov, M. Terentev va boshqalarning XVIII-XX asr boshlariga oid rus tilida yozilgan ilmiy ishlarida Buxoro amirligining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga oid qator ma'lumotlar eslab o'tiladi⁴.

D.N. Logofet asosan Buxoro xonligining sharqiy bekliklari va uning aholisi, iqtisodiy-siyosiy ahamiyati bo'yicha o'zining bir nechta asarlarida qayd etib o'tadi. Shuningdek, sharqiy Buxorodagi chegara istehkomlari va shu kabi boshqa masalalar borasida muhim ma'lumotlar qayd etib o'tadi⁵.

Sharqshunos olimlardan V.V. Bartold dastlab Buxoro xonligi (amirligi)ning siyosiy-ma'muriy bo'linishi masalasiga oid izlanishlarni boshlab bergan bo'lsa-da, keyinchalik bunday tadqiqotlar O.A. Suxareva, B.X. Karmisheva, P.P. Ivanov kabi olimlar tomonidan Shayboniylar davlatining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va aholisining etnik holati bo'yicha Qushbegi hujjatlaridan ayrim ma'lumotlar tahlil qilib o'tiladi⁶.

Ikkinchi guruh adabiyotlariga bevosita O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida nashr etilgan adabiyotlar va amalga oshirilgan tadqiqotlarni kiritish mumkin. Mustaqillik yillarida O'zbekistonlik tarixchilar tomonidan o'zbek xalqi tarixi xususan, Buxoro xonligi tarixining hali ochilmagan sahifalari tadqiq etilib, A. Muhammadjonovning "Buxoro xonligining aholi manzillari" nomli tadqiqoti, shuningdek, bu mavzuda B. Axmedov, Sh. Voxidov, R. Xoliqova, A. Ziyov, Q. Rajabov, B. Eshov, T. Xudoyqulov, A. Xoliqulov, N. To'rayev, S. Qorayev, T. Nafasov, N. Oxunov, U. To'ychiyev, A. Turobov, N. Begaliyev, S. Bo'riyevlar, A. Qayumov, O. Bo'riyev, M. Usmonov kabi tadqiqotchilar⁷ asosan xonlikning davlat boshqaruvi, sud va sud hokimiyati, hunarmandchiligi, savdo-sotig'iga

⁴ Веселовский Н.И. Приём в России и отпуск Среднеазиатских послов в XVII и XVIII столетиях. – Санкт-Петербург, 1884. – 40 с.; Венюков М.Н. Поступательное движение России в Средней Азии // Сборник государственный знаний. Т.111. – Санкт-Петербург, 1877. – С. 117-118; Семёнов А. По границам Бухары и Афганистан // Туркестанский сборник. Т. 554. – С. 1–14; Павлов Н.Г. История Туркестана в связи с кратким историческим очерком сопредельных стран. – Ташкент, 1910. – 172 с; Терентьев М.А. История завоевания Средней Азии с картами и планами. Т.1. – Санкт-Петербург, 1906. – 576 с.

⁵ Логофет Д.Н. Страна бесправия. Бухарское ханство и его современное состояние. – Санкт-Петербург, 1909. – 239 с.; Бухарское ханство под русским протекторатом. Т.1. – Санкт-Петербург, 1911. – 218 с.; В забытой стране. Путевые очерки по Средней Азии. – Москва, 1912. – 180 с.

⁶ Бартольд В.В. Двенадцат лексий по истории турецких народов Средней Азии // Сочинения. Т. II. Ч. 2. – Москва: Наука, 1964. – С. 19-194; Сухарева О.А. Бухара XIX – нач. XX вв. – Москва: Наука, 1966. – С. 38; Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары (в связи историей кварталов). – Москва, Наука, 1976. – С. 46; Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана (по этнографическим данным). – Москва: Наука, 1976. – С. 61.

⁷ Населенные пункты Бухарского эмирата (конес XIX – начало XXв.) / Материалы к исторической географии Средней Азии. Под. Ред. А.Р. Мухаммеджанова. – Тошкент: Университет, 2001. – С. 23-47; Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари / Масъул. муҳаррир: А. Мухаммаджонов. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – Б. 39; Нафасов Т. Жанубий Ўзбекистон топонимиясининг этнолингвистик анализи. – Тошкент, 1985. – Б. 45; Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1988. – Б. 32; Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари луғати. II. – Тошкент: Мухаррир нашриёти, 2011. – Б. 29; Охунов Н. Жой номлари табири / Мухаррир: З. Ҳакимов. – Тошкент, 1994. – Б. 4-51; Туйчиев У. История расселения народов Узбекистана (по данным топонимии Зарафшанской долины). Автореф. канд. ист. наук. – Ташкент: ИИ АНРУз. 1990. – С. 23; Тurobov A.M. Самарқанд этноним ва этнооиконимлари. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2002. – С. 42; Бегалиев Н.Б. Ўзбек этнонимлари тарихидан. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2004. – Б. 28; Бегалиев Н.Б. Самарқанд этнотопонимлари тарихидан. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2011. – Б. 63; Бўриев С.Н. Ургут тумани микротопонимларининг лексик-семантик таҳлили.: Филология фанлари бўйича номзодлик диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2010. – Б. 13.

o'xshash holatlarga to'xtalish mobaynida amirlik tarixi bilan bog'liq masalalarga ham birmuncha e'tibor qaratishgan.

Shu bilan birga, amirlik tarixi bo'yicha keyingi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlar orasida G'. Hamrayev⁸, Y. Shukurillayev⁹, Sh. Vohidov¹⁰, J. Shodiyev¹¹, J. Barakayev va I. Haydarovlar¹², Ochildiyev F.¹³, R. Holiqova¹⁴, A. Holiqulov¹⁵, H. To'rayev¹⁶, A.T. Zamonov¹⁷, G.B. Normurodova¹⁸ va boshqalarning tadqiqotlari alohida ajralib turadi.

Uchinchi guruhga xorijiy tadqiqotlar kiradi. Xususan, Vengriyalik olim Herman Vamberi, amerikalik adib va sayyoh Yu. Skayler, Turkiyalik tarixchi olim Mustafo Budak, Remzi Kilich, Nuriddin Xotino'g'li, Tojikistonlik olimlardan S. Xosaynisheroziy, M. Xoldsvort, G. Meyendorf, G. Bonvalot, Jorj Fredrik Rayt, J. Kunits kabi tadqiqotchilarning asar va ilmiy ishlari xonlik tarixi haqida muhim manbalar hisoblanadi¹⁹. Shulardan Herman Vamberi tomonidan yozilgan "Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi" asarida Binoiyning "Shayboniynoma", Xondamirning "Habib us-siyar" asarlariga tayanib Shayboniynonning Movarounnahrda kirib kelishi bo'yicha (harbiy faoliyati asosida) muhim ma'lumotlar taqdim etadi. Yoki M. Budak turk sultonining Eronga qarshi Buxoro xonligi (Shayboniylar davri) bilan harbiy-siyosiy ittifoqqa intilganligi bo'yicha bergan ma'lumotlari, shuningdek, R. Kilichning turk sultoni Sulton Salim va Sulton Sulaymonning Buxoroga yuborgan turk yanicharlari haqida bergan ma'lumotlari qimmatli hisoblanadi²⁰.

Mavzuning tarixshunosligiga doir tadqiqotlar va adabiyotlar tahlili natijasi shuni ko'rsatadiki, Buxoro xonligi tarixiga oid yaratilgan asarlar, tadqiqotlarda asosiy e'tibor Buxoro xonligining savdo munosabatlari, ijtimoiy holati, xalqaro

⁸ Ҳамраев Ғ. Бухоро амирлигининг қўшбеги ҳужжатларида амирлик маъмурий бирликларига оид маълумотлар: тарихий-географик таҳлил. Тарих фанлари бўйича фал.док. (PhD). – Қарши, 2023. – Б. 49-50.

⁹ Шукуриллаев. Ю.А Бухоро амирлигида қўшин ва ҳарбий иш (1756–1920-йиллар) Тарих фан..номзоди. дисс... – Б. 145

¹⁰ Воҳидов Ш. Қўқон хонлиги ва Бухоро амирлигида унвон ва мансаблар. – Тошкент: Фан, 1996. – Б. 72.

¹¹ Шодиев Ж. Бухоро амирлиги давлатчилигининг ривожланиши. – Тошкент: ТДЮИ нашриёти, 2010. – Б. 103.

¹² Баракаев Ж., Хайдаров И. Бухоро тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991. – Б. 66.

¹³ Очилдиев Ф. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Сурхон воҳаси бекликларининг маъмурий бўлиниши ва бошқарув тизими // Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations. 2021. – №4. Махсус сон. – Тошкент, 2021. – Б. 387-397.

¹⁴ Холиқова Р. Вассал Бухоро амирлигида маъмурий бошқарув // Тарих, мустақиллик, миллий ғоя – Тошкент: Академия, 2001. – Б. 209.

¹⁵ Холиқулов А. XIX-XX аср бошларида Қашқадарё бекликлари: тарих фан. номзоди дисс. – Тошкент: ЎзМУ, 2011. – Б. 52.

¹⁶ Тўраев Ҳ. Бухоро топонимикаси. Дарслик. – Бухоро: Дурдона нашриёти, 2021. – Б. 107.

¹⁷ Замонов А.Т. Бухоро хонлигининг қўшин тузилиши ва ҳарбий бошқаруви (Шайбонийлар сулоласи даври) // Тошкент: БАЁЗ, 2018. – Б. 117-120.

¹⁸ Нормуродова Г.Б Бухоро амирлиги ижтимоий қатламлари ва уларнинг ижтимоий-иқтисодий ҳаётдаги ўрни. ДsС. – Тошкент, 2020. – Б. 83

¹⁹ Holdsworth. Turkestan in the nineteenth century. A Briethistory of the khanates of Bukhara, Kokand and Khiva.- Oxford, 1959. Introduction; Meyendorf G. Voyage d Orenburg a Bouckara fait en 1820. – Paris, 1826; Bonvalot G. Through the heart of Asia. Over the Pomir to India. Vol.II. – London, 1889. – 249 p.; Wright George Fredorick. Asiatic Russia. – New York, 1903. 2 vols; Kunits J. Dawn over Samarkand The rebirth of Central Asia. – New York, 1935. – P. 22-23. Скайлер Ю. Туркистон: Россия Туркистони, Қўқон, Бухоро ва Ғўлжага саёҳат қайдлари. 3. Саидбобоев таржимаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – Б. 334.

²⁰ M. Budak. Osmanli – Ozbak siyasi munasebetlerinin baslamasi. 1996; R. Kilich. Osmanli – ozbek siyasi iliskileri, 2001.

aloqalari kabi ma'lumotlarga qaratiladi. Ammo xonlikning davlat huquqiy asoslari bo'yicha alohida tadqiqotlar olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Ilmiy ish mavzusi Qarshi davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi Buxoro xonligi (amirligi) davlat boshqaruvining siyosiy-huquqiy asoslari tarixiga oid ma'lumotlarni ijtimoiy-siyosiy jihatdan tadqiq etish orqali so'nggi o'rta asrlarda xonlikning davlatchilik tuzulmasida yuz bergan ma'muriy-huquqiy o'zgarish jarayonlarini ilmiy tahlil etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: Shu maqsaddan kelib chiqib, xonlik (amirlik)ning siyosiy-ma'muriy hayoti, bu masalaga oid manbalar va ularning tahlili, davlatdagi yirik huquqiy markazlar, viloyat va undagi tumanlarning huquqiy boshqaruv shakli, bu borada ishlab chiqilgan amaliyotlarni o'rganish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

Buxoro amirligining Qushbegi arxivi hujjatlarida amirlikdagi siyosiy-ma'muriy birliklarga oid ma'lumotlar manbashunosligi va tarixshunosligini ilmiy jihatdan tadqiq etish;

Shayboniylar sulolasi davlat boshqaruv tuzumining tarixiy omillarini huquqiy jihatdan tahlil qilish;

Ashtarxoniylar davlat boshqaruvi va huquqiy asoslarini qiyosiy tahlil qilish;

Buxoro amirligining tashkil topishi va mang'it hukmdorlarining huquqiy islohotlari yozma manbalar, xususan, Qushbegi hujjatlari asosida ko'rib chiqish;

xonlikda sudlov masalalari va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, shuningdek, sud hokimiyati faoliyatining olib borilishini huquq manbalari va asosiy sohalari asosida o'rganish;

xonlikdagi qozixonalar va ularning ish faoliyati, ularning o'ziga xos jihatlari va diniy ulamolarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rnini tahlil qilish;

davlat boshqaruvidagi diniy unvon va mansablar, unda din vakillarining o'rnini bo'yicha qiyosiy tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti: sifatida shayboniylar, ashtarxoniylar va mang'itlar sulolasi davlat boshqaruv tizimining huquqiy asoslari tanlab olindi.

Tadqiqotning predmetini Buxoro xonligi davlat boshqaruvining siyosiy-huquqiy asoslari bo'yicha yozma manbalar, Qushbegi hujjatlarida aks etgan sud va sud ishlari bo'yicha me'yoriy hujjatlar tarixiy jihatdan tadqiq etish belgilab olindi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tipologik, solishtirma va kompleks tahlil, davrlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Yozma manbalar va Qushbegi arxivi hujjatlaridan o'rin olgan Buxoro xonligi(amirligi) davlat boshqaruvi haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida XVI-XX asrlarda xonlikning davlat boshqaruvi va huquqiy tizimi ma'lum bir sharoitlar, ya'ni ("sharqiy huquq" va "musulmon huquqi"ning davlat boshqaruvi va ma'muriyatga ta'siri) hukmron sulolalarning mafkurasi bilan farqlanganligi siyosiy-huquqiy jihatdan dalillangan;

Buxoro xonligida (amirlik) sud va sud ishlari, hokimiyatning markazlashganligi va adolatni ta'minlashdagi ahamiyati hujjatlardagi huquqiy, xususan, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy huquq kabi ma'lumotlar asosida tahlil qilingan va xonlikda sudlar orqali davlat boshqaruvi bilan bog'liq ijtimoiy, siyosiy va huquqiy natijalar aniqlangan;

XVI-XX asrlarda Buxoro xonligidagi (amirlik) diniy mansab va lavozim egalari (ulamo, shayx, muftiy, qozilar) faqat diniy hayotni emas, balki siyosat va huquq tizimini ham boshqarishda ishtirok etib, ularning diniy va siyosiy jarayonlar o'rtasida muvozanatni saqlashga harakat qilganligi, davlat va din o'rtasidagi munosabatlar orqali o'zbek davlatchiligidagi o'rta asrlar davridagi diniy ulamolarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rni aniqlangan;

Xonlikdagi muhim diniy lavozim egalari bo'lgan shaxslarning (Shayx Xudoydod Valiy, Maxdumi A'zam Dahbediy, Qosim Shayx Azizon va Jo'ybor xojalari) siyosiy ta'siri nafaqat Movarounnahr, balki Xuroson, Sharqiy Turkiston va Hindistongacha bo'lgan hududlarni qamrab olgan bo'lib, Ubaydullaxon, Abdulazizxon, Abdullaxon II, temuriylardan Zahiriddin Muhammad Bobur, Humoyun va Kamron mirzolar kabi hukmdorlar ularning yordamiga doimo tayanib kelishganligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Buxoro xonligi (amirligi) davlat boshqaruvining siyosiy-huquqiy asoslari tarixini o'rganishda turli tillardagi yozma manbalar bilan bir qatorda xonlikning siyosiy-ma'muriy hayotida o'ziga xos o'rin egallagan arxiv manbalari va Qushbegi devoniga oid hujjatlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida Buxoro xonligiga qarashli ayrim siyosiy-ma'muriy lavozimlar, ijtimoiy qatlamlar, xususan, shayboniylar sulolasi davlat boshqaruv tuzumining tarixiy omillari, xonlikdagi sudlov masalalari va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va davlat boshqaruvidagi diniy unvon va mansablar va unda din vakillarining o'rni tanishib chiqildi va ular tarixiy tahlilga tortildi.

Xususan, xonlik ijro hokimiyati vakillarining xon o'rdagohida doimiy tarzda hozir bo'lishi, ijro masalasida mukammallik va tez fursatlarda vazifalarni bajarish imkoniyatlari, shuningdek, har bir ijro hokimiyatining maxsus ular bajaradigan vazifalar bo'yicha nomlar bilan atalishi davlatchilikda mansablar terminologiyasini paydo bo'lishiga zamin yaratganligi siyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilib chiqildi. Ishda qo'lga kiritilgan ilmiy natijalar oliy ta'lim muassasalari, maktab va akademik litseylarda xonliklar davri tarixini o'qitishda darslik, o'quv qo'llanma va dasturlar tuzishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya har bir masala yozma manbalar va huquqiy materiallar bilan taqqoslangani bilan izohlanib, bu mavzuda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlardagi fikr va mulohazalar jalb qilingani, tarix fanida tan olingan usullar va nazariy yondashuvlarning qo'llanilgani, tarixiy va huquqiy ilmiy adabiyotlardan va arxiv materiallaridan foydalanilgani, xulosalar va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan o'z tasdig'ini topgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Kutilayotgan tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ulardan, bakalavr-tarixchi talabalar uchun "O'zbek davlatchiligi tarixi", "Tarixiy o'lkashunoslik", "huquqshunoslik", "siyosatshunoslik", "Ekoturizm", fanlari hamda magistratura bosqichi mutaxassisligi

bo'yicha ham "O'zbek davlatchiligi tarixi" fanidan o'quv qo'llanmalar va darsliklarni yaratishda keng foydalanish mumkin.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tarix fanining sivilizatsiyalar tarixi, etnomadaniyat, toponimika, O'zbekiston tarixi, O'rta Osiyoning so'nggi o'rta asrlar davri tarixi, huquqshunosligi, o'lkashunoslik sohalaridagi fanlararo yangicha yondashuvlar va ilmiy yo'nalishlarni yaratish vazifalarini amalga oshirish, shuningdek, qadimgi tarixga oid ilmiy-nazariy, qiyosiy tahlil va umumlashtirish uslublarini takomillashtirishga imkon berishda ko'rinadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yozma manbalar va Qushbegi arxivi hujjatlaridan o'rin olgan Buxoro xonligi (amirligi) davlat boshqaruvi haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida XVI-XX asrlarda xonlikning davlat boshqaruvi va huquqiy tizimi ma'lum bir sharoitlar, ya'ni ("sharqiy huquq" va "musulmon huquqi"ning davlat boshqaruvi va ma'muriyatga ta'siri) hukmron sulolalarning mafkurasi bilan farqlanganligi siyosiy-huquqiy jihatdan dalillanganligi O'zbekiston respublikasi Madaniy meros agentligining ma'lumotnomasi bilan isbotlandi (Xalqaro "Oltin meros" xayriya jamoat fondining 2023-yil 18-avgustdagi 01-41 sonli ma'lumotnomasi). Natijada yozma manbaalar va Qushbegi arxivi hujjatlaridan o'rin olgan Buxoro xonligi (amirligi) davlat boshqaruvi haqidagi ma'lumotlar asosida aniqlik kiritilib, Madaniy meros agentligi yangi ilmiy ma'lumotlar bilan boyitilishiga xizmat qildi.

Buxoro xonligida (amirligida) sud tizimi, sud amaliyoti, hokimiyatning markazlashuvi va adolat mezonlarining ta'minlanishi kabi masalalar, shu bilan birga, hujjatlarda yoritilgan huquqiy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy huquqlar bilan bog'liq ma'lumotlar asosida tahlil qilindi. Sudlar orqali davlat boshqaruvi bilan bog'liq ijtimoiy, siyosiy va huquqiy natijalar aniqlanganda, hukm chiqarish jarayonlari va sud tizimining samaradorligi markaziy hokimiyatning mustahkamlanishi, adolatning ta'minlanishi hamda davlatning ijtimoiy va siyosiy barqarorligini ta'minlashdagi muhim ahamiyatli ishlar haqida Xalqaro "Oltin meros" xayriya jamoat fondi dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Xalqaro "Oltin meros" xayriya jamoat fondining 2023-yil 18-avgustdagi 01-41 sonli ma'lumotnomasi). Natijada Buxoro xonligi (amirligi) sud tizimi va sud hokimiyatiga oid tushunchalarni o'rganishga hissa qo'shdi.

XVI-XX asrlarda Buxoro xonligi (amirligi)da diniy lavozim egalarining (ulamo, shayx, muftiy, qozilar) faqatgina diniy sohadagi emas, balki siyosiy va huquqiy tizimdagi faol ishtiroki kuzatilgan bo'lib, ular diniy hamda siyosiy jarayonlar orasida muvozanatni saqlashga intilgan. Davlat va din o'rtasidagi munosabatlar orqali o'rta asrlar davridagi diniy ulamolarning o'zbek davlatchiligi shakllanishidagi ijtimoiy-siyosiy roli aniqlanganligi haqidagi ma'lumotlardan "O'zbekiston tarixi" teleradiokanalida efirga uzatiladigan "Tarixiy savol" ko'rsatuvi ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, "O'zbekiston" teleradiokanali davlat muassasasining 2024-yil 20-avgustdagi 01-44-174-son ma'lumotnomasi). Natijada Davlat va din o'rtasidagi munosabatlar orqali o'rta asrlar davridagi diniy ulamolarning o'zbek davlatchiligi shakllanishidagi ijtimoiy-siyosiy roli aniqlanganligi haqidagi ma'lumotlar bilan ko'rsatuv mazmunini yana ham boyitishga sabab bo'ldi.

Xonlik (amirlik)dagi muhim diniy lavozim egalari bo'lgan shaxslarning (Shayx Xudoydod Valiy, Maxdumi A'zam Dahbediy, Qosim Shayx Azizon va Jo'ybor xojalari) siyosiy ta'siri nafaqat Movarounnahr, balki Xuroson, Sharqiy Turkiston va Hindistongacha bo'lgan hududlarni qamrab olgan bo'lib, Ubaydullaxon, Abdulazizxon, Abdullaxon II, temuriylardan Zahiriddin Muhammad Bobur, Humoyun va Kamron mirzolar kabi hukmdorlar ularning yordamiga doimo tayanib kelishganligi dalillangan ma'lumotlar asosida "O'zbekiston tarixi" teleradiokanalida efirga uzatiladigan "Tarixiy savol" ko'rsatuvi ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, "O'zbekiston" teleradiokanali davlat muassasasining 2024-yil 20-avgustdagi 01-44-174-son ma'lumotnomasi). Natijada xonlik (amirlik)dagi muhim diniy lavozim egalari bo'lgan shaxslarning (Shayx Xudoydod Valiy, Maxdumi A'zam Dahbediy, Qosim Shayx Azizon va Jo'ybor xojalari) siyosiy ta'siri nafaqat Movarounnahr, balki Xuroson, Sharqiy Turkiston va Hindistongacha bo'lgan hududlarni qamrab olgan bo'lib, Ubaydullaxon, Abdulazizxon, Abdullaxon II, temuriylardan Zahiriddin Muhammad Bobur, Humoyun va Kamron mirzolar kabi hukmdorlar ularning yordamiga doimo tayanib kelishganligi haqidagi ma'lumotlar bilan ko'rsatuv mazmuni boyitilishiga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ish chop etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola (5 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda) maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan ushbu ilmiy tadqiqot ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va manbalar hamda shartli qisqartmalar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning tadqiqot qismi 132 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti bayon etiladi. Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ochib beriladi. Shuningdek, olingan natijalarning ishonchlilikligi asoslanib, uning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **"Buxoro xonligi (amirligi)ning davlat boshqaruvi tuzumi va huquqiy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobining birinchi

paragrafida shayboniylar sulolasi davlat boshqaruv tuzumining tarixiy omillari tahlil qilinadi.

XV asr boshlariga kelib, 1240-yilda Botuxon tomonidan barpo etilgan Oltin O'rda davlati ikki qismga ajraladi, uning sharqiy hududlarida esa Oq O'rda davlati shakllanadi. Ba'zi tarixiy manbalarda ushbu hududlar "O'zbek ulusi" nomi bilan ham tilga olingan. XV asrning o'rtalariga kelib, Sharqiy Dashti Qipchoq hududlarida Jo'jixonning beshinchi o'g'li, Shaybon naslidan bo'lgan Abulxayrxon ko'chmanchi o'zbeklar davlatini barpo etadi. Movarounnahrda Temuriylar o'rtasidagi ichki nizolardan foydalanib, Abulxayrxon Sirdaryoning o'rta oqimidagi bir qancha shaharlarni va Xorazmning ayrim qismlarini qo'lga kiritadi.

XV asrning so'nggi choragiga kelib temuriy shahzodalar o'rtasidagi toj-taxt uchun o'zaro kurashlar avj oladi. Ko'pgina mulklar va viloyatlar, xususan, Farg'ona, Hisor, Samarqand bilan Buxoro, Toshkent, Xorazm o'zlarini mustaqil hisoblab, ko'p hollarda bir-birlari bilan kurash olib borar edilar. Shuning uchun ham Movarounnahrda temuriylar saltanati amalda mustaqil boshqariladigan kichik-kichik viloyatlarga bo'linib ketadi. Buni kuzatib turgan Dashti Qipchoq ko'chmanchi o'zbek qabilalari temuriylar mulklariga tez-tez yurishlar qilib turganlar. Bu kurashlar oqibatida temuriylarning davlatni himoya qilishga ojiz bo'lib qolganligini sezgan Jo'chixon avlodlari XVI asr boshlarida Muhammad Shayboniixon boshchiligida Movarounnahrda kirib keldilar va qisqa muddat ichida bu zaminda o'z hukmronligini o'rnatadilar²¹.

Shaybonixonning markazlashgan davlat tuzish yo'lidagi raqiblaridan biri Dashti Qipchoqdagi qozoq sultonlari edi. XVI asrning boshlarida qozoq sultonlari Shayboniixonning janubga qilgan harbiy yurishlaridan foydalanib Movarounnahrda bir necha marta bosqinchilik urushlari uyushtirgan. Buxoro va Samarqandni talon-taroj qilib, aholini asir qilib olib ketadilar.

O'z faoliyati davomida Muhammad Shayboniixon har bir yirik harbiy yurishlari oldidan albatta, diniy mubohisa (ya'ni, kengash) chaqirib, o'z xatti-harakatlarini shariat qoidalari asosiga qo'yishga intilgani va musulmon qonunchiligi (fiqh) yuzasidan har qanday bosqinchilik deb hisoblanadigan yurishni g'azot urushi deb tan oldirilishiga harakat qilinganligi unga xos jihatlarni namoyon etadi.

Muhammad Shayboniixonning vafotidan so'ng davlatdagi markaziy hokimiyat anchagina zaiflashdi²². Beklar (amirlar) va sultonlarning ko'pchiligi Shayboniixonidan keyingi bir nechta xonlarga nomigagina bo'ysunadilar. Manbalarda Muhammad Shayboniixonning uch o'g'li bo'lganligi eslab o'tilgan. Bular, Muhammad Temur Sulton, Xurram Sulton, Suyunch Muhammad Sulton. To'ng'ich o'g'li Temur Sulton 1514-yildagi janglarning birida halok bo'lgan. Uning Po'lod Sulton ismli yagona o'g'li bo'lib, u 1530-yili vafot etadi. Po'lod Sultonning Ko'kbo'ri ismli o'g'lidan so'ng avlod qolmaydi. Xurram sulton Zahiriddin Muhammad Boburning jiyani bo'lib, u yoshligida halok bo'lgan. Kenja o'g'li Suyunch Muhammad sulton (Abulxayr) otasidan yosh qolgan va Ubaydullaxon qo'lida tarbiyalangan. Uning bir o'g'li bo'lib, uning ismi –

²¹Асқаров А.А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – Б. 472-473

²²Қаранг: Аёзий Мирзо Муҳаммад Ҳайдар. Тарихий Рашидий. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б. 377-378.; Муҳаммад Ҳайдар мирзо. Тарихий Рашидий, 2010. – Б. 348-355.

Muhammad Yor sulton. U 1554-yili bir tuhmat sababdan qatl etiladi. Muhammad Yor sultondan ham zurriyot qolmagan. Muhammad Shayboniyxon avlodidagi erkak farzandlar zanjirining oxirgi halqasi ham uzilganligi²³ e'tirof etiladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek shayboniylar davlat boshqaruvidagi muhim vazifalardan biri naqib hisoblangan. Naqiblik mansabi xon huzurida juda katta vakolatlarga ega bo'lib naqib xonning eng yaqin va ishonchli kishilaridan hisoblangan. Manbalarga ko'ra, rasmiy qabul marosimlarida naqibning oliy hukmdordan chap tomonda birinchi bo'lib joy olishi naqibning dargohdagi yuksak martabasidan dalolat beradi. Shuningdek, xon tomonidan chiqarilgan farmon va yorliqlarda ham naqibning nomi birinchi bo'lib zikr etilgan²⁴.

Shuningdek, shayboniylar davlatidagi muhim mansablardan yana biri otaliqdir. Bu mansabga tayinlangan shaxs, avvalo, voyaga yetmagan shahzodaning tarbiyasi uchun mas'ul bo'lgan. Mazkur lavozim egasi shahzodaga otaliq qilib, otasining o'rnini bosadigan darajada tarbiya bergan. Otaliqlar shahzodalarga mulk qilib berilgan viloyatlardagi xon hokimiyati siyosatini belgilash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega bo'lganlar. Otaliqlar amalda butun bir viloyat taqdirini, uning markaziy hokimiyat bilan munosabatlarini hal qilganlar²⁵.

Ushbu bobning ikkinchi paragrafida ashtarxoniylarning davlat boshqaruvi huquqiy asoslari haqida gap boradi, bunda ashtarxoniylarning davlat tizimi va ma'muriy boshqaruvi o'z tuzilishi hamda mazmun-mohiyatiga ko'ra, shayboniylar davri davlatchiligidan deyarli farq qilmas edi. Manbalarning ma'lumot berishicha, XVII-XVIII asrning birinchi yarmi davlat boshqaruvida hokimiyat markazda ham, viloyatlarda ham asosan bir idora – dargohda mujassamlashib borgan. Shuningdek, shayboniylar davrida bo'lgani kabi ashtarxoniylar davrida ham davlat tizimida o'troq turmush tarzi an'analari bilan birga ayrim yarim ko'chmanchilarga xos udumlar ham saqlanib qolgan²⁶.

Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligi hududi juda qisqarib ketdi. XVII asr boshlarida xonlikka bo'ysunuvchi oltita viloyat – Buxoro, Samarqand, Sagaraj, O'ratepa, Shahrisabz va G'uzor viloyatlari tilga olinadi xolos. Keyinchalik Imomqulixon tomonidan Hisor, Toshkent, Turkiston, Farg'ona, Balx viloyatlari qayta bo'ysundirilgan bo'lsa-da, Xurosondagi bir necha yirik viloyatlar va Xorazm butunlay Buxoro xonligi tarkibidan chiqdi.

Bu davrda ham xon rasman oliy hokimiyat boshlig'i bo'lib, davlatdagi ichki va tashqi siyosatga bog'liq barcha masalalar uning ixtiyori bilan hal etilgan. Barcha oliy farmonlar xon tomonidan joriy etilib, uning nomidan tangalar zarb qilinar, xonning nomi xutbaga qo'shib o'qilardi. Ammo amaldagi boshqaruvda ko'pgina ashtarxoniylar hukmdorlar saroydagi katta mavqega ega bo'lgan amaldorlar hamda yirik ulamolar qo'lida qo'g'irchoq edilar. Nodirmuhammad, Subhonqulixon, Ubaydullaxon kabi xonlar markaziy hokimiyat obro'sini ko'tarishga, bebosh amirlar mavqeyini cheklashga harakat qilgan bo'lsalar-da, ularning bu harakatlari

²³ Муҳаммадёр ибн Араб Қатаған. Кўрсатилган асар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – Б. 128-131.

²⁴ Худойкулов Т. Марказий Осиё давлатларининг бошқарув тарихи (марказий, маҳаллий, ҳарбий, диний ҳокимият (XVIII-XIX аср бошлари)). Тарих фанлари док. дисс. – Қарши, 2022. – Б. 54.

²⁵ Худойкулов Т. Марказий Осиё давлатларининг бошқарув тарихи. – Қарши, 2022. – Б. 55.

²⁶ Сағдуллаев А. ва б. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. – Тошкент: Академия, 2000. – Б. 202.

deyarli samara bermadi. Bu davrda markaziy davlat boshqaruvi saroy amaldorlari qo'lida to'plangan bo'lsa, joylardagi mahalliy hokimiyat viloyat hokimlari ixtiyorida bo'lgan.

Manbalarda ta'kidlanishicha Ashtarxoniylar davrida quyidagi amallar ham hukmdorning yaqinlariga beriladi va ular ba'zan oliy hukmdorning amriga binoan saroyga otga minib kelishlari mumkin bo'lgan. Bu to'rt amal ko'kaldosh, qo'shbegi va saroy xojayi kalonidan keyin turadi va darajasi ulardan pastroqdir. Ulardan birinchisi inoqi xurd (kichik inoq), ikkinchisi mehtari kalon (katta mehtar). Biror ariza yoki elchi (ning xati) saroyga kelsa avval inoqi xurdga beriladi va u xatni ochib, podshohning roziligi bilan munshiyga baland ovoz chiqarib o'qish uchun beradi. Mehtari kalonning vazifasi zakot, mo'minlarning ushri (dahyak solig'i) dan to'rtini, zimmiylar ushrining yarmini, harbiylarning ushrini, mol va naqd pullar, chorva va g'alla luqtasi (topib olingan egasiz narsalar)ni o'z egalariga topshirishdan iborat bo'lgan. Uchinchisi devoni sarkor bo'lib, Sulton yerlari, tegirmon, podsholik do'konlarini foydalanishga va ijaraga beradi, kirim-chiqimi haqida xos sarkorga hisobot beradi. Sulton harami, xazinasi, ko'runish vaqtidagi taom va shunga o'xshash xarajoti unga tegishli. To'rtinchi dasturxonchi. Uning xizmati podshoh dasturxonini to'shash va uni tartibga solishdan iborat²⁷.

Ushbu bobning uchinchi paragrafida Buxoro amirligining tashkil topishi va mang'it hukmdorlarining huquqiy islohotlariga to'xtalib o'tilgan. Buxoroda XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab mang'itlar sulolasining vakillari hukmronlik qiladilar. Sulola hukmronligining asoschisi Rahimbiy ibn Hakimbiy biroz muddat (1747-yildan keyin) Abdulfayzxonning o'g'illariga otaliq bo'lgan bo'lib, 1756-yilda sayyidlar, xo'jalar va ruhoniylar tomonidan Buxoro taxtiga o'tqaziladi. Rahimbiy xon unvonini olmasdan o'zini "noib ul-hukumat" ("hokim o'rinbosari") deb bilgan.

Buxoro amiri Sayid Olimxon o'zining "Buxoro xalqining hasrati tarixi" asarida²⁸ Buxoro amirligining siyosiy va idoraviy tashkilotlari hamda davlat boshqaruvi haqida ma'lumotlar berib, jumladan, quyidagilarni yozadi: "Buxoro amirlari hukm yuritishlarida shariat usul va odatlariga rioya qilar edilar. Buxoroning islom ulamolari amirni payg'ambar xalifasi – o'rinbosari, usul va shariat himoyachisi deb bilar edi. Amirning tirikchiligi butunlay shariatga mos bo'lardi, uni buzish mumkin emas edi. Buxoro xonlari butunlay mang'itlarning o'zbek toifasidan bo'lgan. Buxoro xonlarining o'zbek odatlariga ko'ra, to'shakcha ustiga tabarrukona o'tqazib, sayyidlar, xo'jalar va mullolar uni yerdan ko'taradilar²⁹.

Amirlikdagi markaziy davlat boshqaruvida Buxoro shahri alohida o'rin egallagan. Jumladan, Buxoro shahri hokimi amirning birinchi vaziri va boshqa viloyatlar boshqaruvchisi hisoblangan. Buxoro amiri huzurida yuqori lavozimdagi mansabdorlar bilan birga quyi amaldagi mansabdorlar ham mavjud bo'lgan. Amir farmonlarini yetkazuvchi parvonachi, amirga doimo hamroh bo'lib yuruvchi hidoyachi, amir maslahatchisi va xorijiy mehmonlarni kutib oluvchi shig'ovul,

²⁷ Садри Зиё ҳақида қаралсин: Воҳидов Ш., Чориев З. Садри Зия и его библиотека (Из истории книги и книжной культуры в Бухаре в начале XX века). – Ташкент: Янги аср авлоди, 2007. – С. 3-34.

²⁸ Амир Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 57.

²⁹ Ўша асар. – Б. 80.

amir osoyishtaligi va tinchligini muhofaza qiluvchi tongotar (tunqator), amirga qaratilgan salom va ta'zimlarni qabul qiluvchi javobgar salom og'asi, amir dasturxoniga javobgar dasturxonchi, amir safari chog'ida namozga chorlovchi imomi jilov, amir safari chog'ida qonun bilan shug'ullanuvchi mufti jilov, amir maslahatchilari guruhi jam'og'a kabilar shular jumlasidan. U siyosiy mustaqillikdan mahrum bo'lib, Rossiya protektoratiga aylanib qolgan edi³⁰.

Tadqiqotlar tahlili Buxoro amirligi markaziy boshqaruvi bo'yicha quyidagi muxtasar xulosalar chiqarish imkonini berdi:

garchi siyosiy mustaqilligidan mahrum bo'lsa-da, Buxoro amiri o'z fuqarolari ustidan cheklanmagan hokimiyatini qo'lida saqlab qolgan;

Buxoro amirining siyosiy faoliyatini bevosita nazorat qilish uchun Rossiya imperatorining 1885-yildagi farmoni asosida "Rossiya imperatorining siyosiy agentligi" (1886–1917) tashkil etilgan bo'lib, u 1868-yildagi shartnoma shartlari bajarilishini va amirning siyosiy faoliyatini nazorat qilib borgan;

XIX asr oxirida Buxoro amirligi hududi podsho Rossiyasi tasarrufiga o'tgan hududlar hisobiga qisqargan edi. Aholisining soni 2 million kishi atrofida bo'lib, asosiy mashg'uloti hunarmandchilik, dehqonchilik va chorvachilik bo'lgan;

poytaxt Buxorodan tashqari Qarshi, Chorjo'y, Kitob, Shahrisabz, Denov, Boysun, Termiz kabi shaharlar amirlikning yirik savdo va hunarmandchilik markazlari hisoblangan;

davlat ishlarini boshqaruvchi oliy amaldor qo'shbegi bo'lib, u soliqlar yig'imi nazoratini boshqarar, ma'muriy amaldorlar tarkibiga rahbarlik qilar, mahalliy beklar bilan yozishmalar olib borardi. Qo'shbegi har kuni shaxsan hukmdorga amirlikdagi ahvol to'g'risida ma'lumot berib turgan.

Dissertatsiyaning **Buxoro xonligi davlat boshqaruvida sud va sud ishlarining ahamiyati** deb nomlangan ikkinchi bobining birinchi paragrafida xonlikda sudlov masalalari va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar asoslab berilgan.

O'zbek xonliklari ichida dinga moyillik ko'proq Buxoro davlatida kuzatilib, har bir hukmdor o'z mansabini, xavfsizligini diniy hokimiyat orqali himoyalashga harakat qilgan. Shuning uchun ham davlat siyosatida ruhoniylarning o'z o'rnini bo'lib, hukmdorlar ularning foydasi uchun ham islohotlar o'tkazishga majbur edilar. Yoki hukmdorlarning o'zi ham diniy urf odatlarga moyilligi kuchli bo'lib, jumladan, shayboniy hukmdorlardan Ubaydullaxonning o'zi o'ta dindor ekanligini 1512-yil 7-aprelda Turkistonda Ahmad Yassaviy maqbarasi oldida o'tkazgan katta yig'inidan bilish mumkin. Ubaydullaxonning Ahmad Yassaviyga ixlosi baland edi. Shu yerda Ubaydullaxon "Agarda Movarounnahrni qo'lga kiritisa butun umr dindor hukmdor bo'lishga qasam ichadi". Ubaydullaxonning keyingi hukmdorlik davrida islom diniga bo'lgan hurmati ushbu voqeaning yorqin isbotidir³¹.

Ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda o'z faoliyati davrida sud ma'lum bir ish natijasiga xulosa yoki hukm chiqarishda ishonarli yuridik hujjatlarga tayangan. Yuridik hujjatlar orasida eng ko'p tarqalganlari birinchidan, vaqfnomalar bo'lib, yuzlab yillar o'tganligiga qaramay, bizgacha hatto ularning asl nusxalari yetib

³⁰ Ушбу жараён тарихий-илмий адабиётларда кенг ёритилган бўлиб, бунга махсус тўхталиб ўтмадик.

³¹ Файзуллаев Фаррух. Ҳофиз Таниш Бухорийнинг "Абдуллонома" асарида Убайдуллахон фаолиятининг ёритилиши // Ўтмишга назар. 4-жилд, 7-сон. – Тошкент, 2021. – Б. 44-45.

kelgan. Ular orasida “Vaqfnoma” yoki “Hazrat Shayboniyxon vaqfnomasi” deb ataluvchi hujjat o‘zining davri, ta’sis etilishi, shartlari va tuzilishi jihatidan alohida ajralib turadi, u bizgacha yuz sahifadan ortiq kitobcha shaklida muqovalangan holda yetib kelgan murakkab tuzilishdagi hujjatdir. Agar Xoja Ahrorga tegishli va boshqa vaqf hujjatlari bir necha hujjat, in’om yorliqlaridan iborat bo‘lsa, bu hujjat katta hajmli yagona vaqfnomadir³².

Amirlikda Shohmurod nomi bilan tanilgan Amir Ma’sum al-Ma’ruf ibn Doniyolbiy otaliq Shohmurodbiy (1785–1800) mazkur sulolaning davlat sohasida ko‘plab islohotlarni amalga oshirgan vakili bo‘ldi.

Amir Shohmurod tomonidan o‘tkazilgan sud-huquqiy islohotlari mamlakatda sud ishlaridagi nohaqliklarga chek qo‘yilishiga, sudlarda ishlarning erkin olib borilishiga hamda qozilar tomonidan odillik, adolat va insonparvarlik ruhida sud jarayonlarini amalga oshirishga imkon yaratib berdi. Asosiy sud idorasi qozilik mahkamalari hisoblanib, qozikalon butun mamlakatning bosh qozisi (sudyasi) edi. “Majma’ al arqom” ma’lumotlariga qaraganda eng oliy diniy mansab qozilar amali bo‘lgan. Fuqarolik va jinoiy ishlarning barchasini qozilar ko‘rib chiqqan. Sud ishlarini yuritish tartibi oddiy ko‘rinishga ega edi³³. Qozi ul-quzot mansabidan keyin turuvchi bo‘lgan uchinchi darajali qozi askar asosan harbiy kishilar ustidan hukm chiqarish, sud qilish ishlarini bajargan, Buxoro shahridagi Mir arab madrasasida qozi askar lavozimi uchun o‘qitilgan, biroq qozi askar, muftiy askarlarning o‘qitilishi bilan qolgan kasb uchun o‘qitiladigan dars mashg‘ulotlari bir xilda olib borilgan.

Ushbu bobning ikkinchi paragrafida xonlikda sud hokimiyati faoliyatining olib borilishi haqida so‘z boradi.

Podsho Rossiya davrida xonliklar tarixiga qiziqish benihoyat katta bo‘lgan. Ular o‘lkani har jihatdan mukammal o‘rganar ekan, nafaqat moddiy boyliklarini, balki tabiiy, ma’naviy boyliklarini ham o‘zlashtirishni o‘z oldiga maqsad qilib olgan edi. O‘rta Osiyo hududlariga safarbar etilgan harbiylar bilan birga sharqshunos olimlar bevosita o‘lkaning tarixi, etnografiyasi, tabiati, ijtimoiy-siyosiy va madaniyat sohalarini ilmiy jihatdan o‘rganib, ayrim holatlarda xolis, ayrim jihatlarda noxolislik bilan yondashgan. Jumladan, D.I. Logofet Buxoro amirligi sudi tarixini bir yoqlama va asossiz ravishda bayon etib, unga “huquqsizlar va yovvoyi o‘zboshimchalik mamlakati” – deb ta’rif beradi hamda odil sudlovga oid qoidalar amalda qo‘llanilmagan deb ma’lumot beradi³⁴.

Sayohatchi olim Ye.K. Meyendorf ham sud tizimi haqida qisqacha ma’lumot berib, qozikalon oliy sudya lavozimida bo‘lsa-da, biroq mahalliy qozilar faoliyatini umumiy nazorat qilish yoki boshqarish vakolatiga ega bo‘lmagan deb ta’kidlaydi. Buxoro amirligi davlatchiligi tarixi bilan shug‘ullangan olim B.I. Iskandarov amirlik sudi tarixiga oid asosli va xolis ma’lumotlarni dastlabki manbalarga tayangan holda keltirib o‘tadi. Xususan, u amirlikda sud ishlari shariat asosida olib borilganligini, qozilar va a’lamlar ruhoniylar tarkibiga kirganligini, ular amir

³²Мукимов З. Ўзбекистон давлати ва ҳукуки тарихи. – Тошкент: Адолат, 2003. – Б. 197.

³³Сагдуллаев А.ва б. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. – Тошкент: Академия, 2000. – 202 б.

³⁴Логофет Д.И. Страна бесправия. Бухарское ханство и его современное состояние. – СПб., 1909. – С. 58.

tomonidan tayinlanganligini, qozilik faoliyati qozikalon tomonidan boshqarilganligini ta’kidlab o’tadi³⁵.

Buxoroda mahkama va qozixonalarda vazifalar odatda quyidagicha taqsimlangan:

Qozi (al) ul-kuzzot, qozi kalon, qozi mutlaq, qozi rais (qo’shinda askariya muftisi fatvolari bajarilishini nazorat qilgan), qozi, qoziy jilov (xon rikobida), a’lam, muftiy, mufti askar, tarakachi, alamon (qosid ma’nosida), mirshabxona sadri, mirshab va mulozim (oddiy xizmatchi).

Qozilik mahkamasi – qozi al-kuzzot tomonidan boshqarilgan bo’lib, unda mirzalar hamda mulozimlar faoliyat yuritganlar. O’z navbatida, qozi al-kuzzot Buxoro shahrining bosh qozisi hisoblangan. Mirzalar – qozilik mahkamasining ish yurituvchilari hisoblansa, mulozimlar esa surishtiruv ishlarini olib borish bilan mashg’ul bo’lganlar.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, ayrim tadqiqot ishlarida amirlikda qozilik idorasiga qozi (al) ul-kuzzot boshchilik qilgan deyilsada, boshqa manbalarda uni qozi kalon boshqargan deb ta’kidlanadi. Ayrim tadqiqotlarda esa, qozi ul-kuzzot qozi kalon o’rinbosari lavozimida xizmat qilgan va qozi kalon amirlikdagi barcha qozilar ustidan nazorat olib borgan deb e’tirof etiladi. Har qanday holatda ham, qozi kalon Buxoro xonligi davlatida (ashtarxoniylar hukmronligi) oliy sudya lavozimini amalga oshirganligi to’g’risida mavjud manbalar guvohlik beradi³⁶.

Qozilar o’ziga murojaat qilgan fuqaroga nisbatan betaraf bo’lishi, ulardan qilib bergan hukmi uchun hech qanday sovg’a-salomlar olmasligi kerak bo’lgan. Barcha hukm albatta shariat asosida amalga oshirilgan. Shariat (arab. – to’g’ri yo’l; islomda qonunchilik ma’nosida ishlatiladi) islom huquq tizimi bo’lib, shariatda sof huquqiy masalalardan tashqari axloqiy me’yorlar va amaliy diniy talablarga ham qonun tusi berilgan. Shariatga musulmon kishi uchun dunyoga kelishidan to’ o’limigacha yurish-turishini belgilovchi qoidalar to’plami sifatida qaralgan. Islom huquqshunoslari bir necha asr mobaynida shariat me’yorlarini ishlab chiqqanlar³⁷.

Ushbu bobning uchinchi paragrafida huquqiy tizim, huquq manbalari va asosiy sohaları asoslangan.

Movarounnahrda tashkil topgan davlatlarning ijtimoiy-siyosiy tuzumini o’rganmay turib, O’zbekiston davlati va huquqi tarixini chuqur tushunish mumkin emas. Xususan, Butun XVI asr ijtimoiy voqealari Abulxayrxon avlodlari bo’lgan dasht o’zbeklarining Movarounnahrni qo’lga kiritib, o’z mavqeyini mustahkamlashga qaratilgan voqealar bilan xarakterlanadi. Chunki bu davrda Movarounnahr va Xuroson temuriy shahzodalarning taxt va ustunlik uchun o’zaro kurashlari, shuningdek, tarxonlar hokimiyatining kuchayishi va ularning

³⁵Бобоев Х. ва бошқ. Ўзбек давлатчилиги тарихи. 2-китоб. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2009. – Б. 259-271.

³⁶Бобоев Х. ва бошқ. Ўзбек давлатчилиги тарихи. 2-китоб. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2009. – Б. 263.

³⁷Худойкулов Т. Марказий Осиё давлатларининг бошқарув тарихи (марказий, маҳаллий, ҳарбий, диний ҳокимият (XVIII-XX аср бошлари)). Монография. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси, 2023. – Б. 47-62; Бурҳониддин Марғинович, Ҳидоя, 1 ж. – Тошкент, 2000. – Б. 25; Абдулвахҳоб Халлоф. Усул ул фикҳ (Ислом қонуншунослиги асослари), 1–2 қисм. – Тошкент, 1997. – Б. 54; 3–4 қисм. – Тошкент, 1999; Абдулҳаким Шаръий Жузжоний, Ислом ҳуқуқшунослиги, ҳанафий мазҳаби ва Ўрта Осиё фақиҳлари. – Тошкент, 2002; Саидов А.Х. Бурҳониддин Марғинович – буюк ҳуқуқшунос. – Тошкент, 1997; Хусниддинов З., Ислом: йўналишлар, мазҳаблар, оқимлар. – Тошкент, 2000.

mustaqillikka intilishlari bilan bo'lgan siyosiy jarayonlarga tortilib qolgan edi. Bu holat Abulxayrxon avlodlaridan bo'lgan Muhammad Shayboniyxonga Movarounnahrni qo'lga kiritishini osonlashtirar edi. Uning sa'y-harakati bilan 1499–1507-yillar oralig'ida Movarounnahr va Xurosonda o'z hokimiyatini o'rnatadi.

Shayboniyxon davlat boshqaruvining huquqiy asosini yaratar ekan, dastlab Temuriylar sulolasining hukmronligi tugaganligini rasman e'lon qiladi. Mamlakat uzoq yillar mobaynida siyosiy jarayonlarga tortilishi oqibatida yuzaga kelgan iqtisodiy inqirozni oldini olish maqsadida siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar o'tkazadi. Xususan, birinchidan o'sha davrda Temuriylar davlatining pul xo'jaligi izdan chiqayotganligi bois 1507–1509-yillar orasida pul islohoti o'tkaziladi. Uning asosiy maqsadi mis va kumush tangalar aniq bir qiymatda butun davlat miqyosida qo'llanilishini ta'minlash edi. Ikkinchidan, tarixchi Hofiz Tanishning yozishicha, Movarounnahr Shayboniylar qo'lga to'la o'tgach, qadimgi odatga ko'ra, barcha sultonlar viloyat hokimliklarini taqsimlashni yoshi ulug' bo'lgan Jonibek sultonga (Abdullaxon II ning bobosi) ishonib topshirishadi. Shu tariqa mamlakatdagi katta-yu kichik viloyat va shaharlar sulola vakillariga munosib ravishda taqsimlab beriladi.

Ayrim tadqiqotchilarning fikricha Shayboniyxon qo'lga kiritgan yerlarni boshqarish tartibiga ko'ra, u sof o'rta asr ishlab chiqarishiga asoslangan uslubda bo'lib, qo'lga kiritilgan viloyat yoki shaharlarni alohida xizmat ko'rsatgan qon-qarindoshlari, qo'shin (udel) boshliqlariga hissa qilib bo'lib berilgan. Biror gunoh ish qilganlarida ularni shu mulkdan mahrum etishlari oqibatida ko'plab nizolar kelib chiqar edi. Abulxayrxon va keyinchalik Turkistonda tashkil topgan shayboniylar davlati musulmon davlati bo'lganligi uchun ham huquqining asosiy yuridik manbalari, albatta, musulmon huquqi, uning sunniy mazhabi asosida yaratilgan huquqiy qo'llanmalardir. Shuningdek, xonlarning unga shariatga zid bo'lmagan farmon va yorliqlarini, qisman bu yerda qadimdan yashab kelgan turkiy xalqlar orasida mavjud bo'lgan huquqiy odatlar, Chingizxon va uning davridan saqlanib qolgan Yaso va Yusunning ba'zi qoidalarini hisoblanar edi³⁸.

Markaziy Osiyoda huquqning asosiy manbayi shariat bo'lsa-da, u odat huquqining yashashiga chek qo'ya olmagan edi. Ba'zi bir ilmiy adabiyotlarda huquqiy odatlar va huquqiy bo'lmagan odatlar bir-birlaridan farqlanadi deyilgan. Davlat tomonidan tan olinib, mustahkamlangan va o'z vakolatiga (yoki sanksiyasiga) ega bo'lgan odatlarga yuridik odatlar hisoblanadi. Markaziy Osiyoda hukmron sulola bo'lgan turk-o'zbek o'troq va chorvador xalqlari orasida juda ko'p turli odatlar, ayniqsa, davlat huquqiy odatlari mavjud bo'lib kelgan. Huquqiy odatlar ham huquq tarmog'iga borliq holda bir necha guruhlariga jumladan, davlat huquqi, oila va nikoh huquqi, qishloq xo'jaligi huquqi, armiya va davlatga oid odat huquqlariga bo'lish mumkin³⁹.

O'rganilayotgan davrda boshqaruv tizimi quyidagicha bo'lgan:

1. Markaziy boshqaruv – unda vazir, vaziri a'zam, devonbegi, mushrif, xazinachi, ko'kaldosh, otaliq, naqib, parvonachi, shig'ovullar kirgan.

³⁸ Муқимов З. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. – Тошкент: Адолат, 2003. – 280 б.

³⁹ Ўша асар. – Б. 185-186.

2. Harbiy boshqaruv – unga nuyon tug‘begi, tovachi, jevachi, qutvol, dorug‘a, qo‘rchiboshi, mingboshi, qozi askar, chuhraboshilar kirgan.

3. Diniy boshqaruv – shayxulislom, qozi kalon, a‘lam, imom sadr, muftiy, rais, mudarrislar kirgan.

4. Mahalliy boshqaruv – xon tomonidan tayinlangan viloyat va tuman hokimlari qo‘lida bo‘lgan⁴⁰. Zero, davlat tepasida turgan xon cheklanmagan hokimiyatga ega bo‘lgan. U o‘z atrofidagi viloyat hokimlari va tuman noiblarini almashtirishda mustaqil siyosat olib boradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **Xonlikda (amirlikda) diniy unvon va mansablarning boshqaruvdagi o‘rni** deb nomlanib, bu yerda, avvalo, qozixonalar faoliyati va ularning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi.

O‘zbekiston Milliy davlat arxividagi “Buxoro Amiri Qushbegisi arxivi” sarlavhasi bilan I-126 fondga saqlanayotgan hujjatlarni (umumiy to‘qqizta katta guruhga bo‘linadi) o‘rganish natijasida unda ma‘muriy hujjatlar, siyosiy mavzudagi hujjatlar, iqtisodiyot masalalariga doir hujjatlar, sud materiallari, diniy hujjatlar kabi ma‘lumotlarni tahlil qilish mumkin. Shulardan, diniy hujjatlarda amirlikning siyosiy-ma‘naviy hayotida diniy mansab va lavozim egalarining (ulamolarning) ta‘siri ulkan bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Ushbu mansab va lavozim egalari diniy hokimiyatni o‘zida gavdalantiradi⁴¹.

T. Xudoyqulovning tadqiqot ishlarida shu mavzudagi qator ilmiy adabiyotlarga tayanib quyidagi fikrlarni tahlil qilib o‘tgan⁴². Jumladan, Qozixonalar faoliyatidan tashqari qirq a‘lamdan iborat oliy sud palatasi ham tuzilgan. Uning a‘zolari shariat huquqi asosida Shohmurodning o‘zi tuzib bergan to‘plamni qo‘llariga olib, arz va shikoyatlarni hal etishda unga qarab ish ko‘radigan bo‘ldi. Oliy qozixonada ish ko‘rilayotganda amirning o‘zi bosh bo‘lib turgan. Shu boisdan mazkur tashkilotni amirning oliy sudi deb atash mumkin. Bundan tashqari, sudda ish ko‘rilayotganda da‘vogarning shaxsan o‘zi ishtirok etishi talab qilingan. Tumanlar va kattaroq qishloqlarga (qasabalarga) qozilar tayinlash ham u kiritgan yangiliklardan bo‘ldi. Shunday qilib, Amir Shohmurod davrida Buxoro amirligida yangi sud tizimi: qasaba, tuman, viloyat qozilari, Bosh qozi hamda qirq a‘lam sudi vujudga kelib, eng oliy qozi amirning o‘zi edi. Shariat huquqi asosida Shohmurod tuzgan qoidalar to‘plami diqqatga sazovordirki, davlat boshliqlari qo‘li bilan tuzilgan qoidalar to‘plamlari kamdan-kam uchraydi⁴³.

Buxoro xonligidagi (amirlik) qozixonalar faoliyatini qo‘shni Xiva xonligi qozilik faoliyati doirasida qiyosiy tahlil qilib ko‘radigan bo‘lsak, Xiva xonligida qozixonalar faoliyati va ularning o‘ziga xos jihatlari u yerda qozikalon butun xonlik miqyosida qozilar faoliyati ustidan boshqaruvni amalga oshirgan. Ular qozilar chiqargan hukmlarni bekor qilish yoki xon tasdig‘idan o‘tkazish, ko‘rsatmalar

⁴⁰Мирза Бади Девон. Мажма ал-аркам. Предписания фиска. Приемы документации в XVIII в. Факсимиле рукописи / перевод А.Б. Вилдановой. – Москва, 1981. – С. 81.

⁴¹ Shodmon Vohidov, Rahbar Xoliqova. “Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruvi tarixidan”. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – B. 30.

⁴²Худойкулов Т. Марказий Осиё давлатларининг бошқарув тарихи (марказий, маҳаллий, ҳарбий, диний ҳокимият (XVIII-XX аср бошлари)). Тарих фанлари доктори (DSc) – Қарши, 2021. – 225 б.

⁴³ Муқимов З. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. Олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик. – Тошкент: Адолат, 2003. – Б. 280.

berish huquqiga ega bo'lgan⁴⁴. O'z vakolati doirasida jinoyat va fuqarolik ishlarini ko'rgan. Yer-mulk, qarz tilxati kabi hujjatlarga o'z muhrini bosgan. Nikoh hujjatlaridan tortib to xon va boshqa amaldorlar tomonidan chiqarilgan hujjatlarni muhr ham bosish yo'li bilan tasdiqlagan⁴⁵.

Tadqiqotchilar H.Z. Ziyoyev, H.N. Bobobekov, Sh.H. Vohidov, G'. Ahmadjonov, N.A. Abduraximov va T. Xudoyqulovlarning asarlarida qozikalon va qoziaskarlar albatta o'z faoliyati davomida yuqori martabali ruhoniylar, qozilik sohasidagi faoliyatga boshchilik qiluvchi, harbiy sharoitda shariat me'yorlarining bajarilishi yuzasidan mas'ul va qoziaskar nazoratchisi hisoblanuvchi shayxulislom bilan hamkorlikda ish yuritishganligini eslab o'tadi. Shuningdek, ular markaziy davlat boshqaruvida yuqori mavqega ega bo'lishgan, oliy jazo tayinlashga oid fatvo berish (hukm chiqarish) va uni xon tasdig'iga kiritish vakolatini amalga oshirganlar⁴⁶. Qoziaskar o'zining maxsus askarlariga ega bo'lib, qo'shni davlatlar haqida ma'lumot to'plagan. Harbiy safarlarda xon bilan birga ishtirok etgan.

Bu islohotlar o'z navbatida boshqa xonliklardagi sud tizimini isloh qilishga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Qozikalonga yoki amirga yozilgan shikoyatlar bo'yicha tekshirishlar o'tkazildi va agar qozi tomonidan chiqarilgan qaror noroziliklarga sabab bo'lsa, uning bekor qilinishi mumkin edi. Bu jarayonlarning eng muhim jihati sud organlarining ishi shariat huquqiga asoslanib, qarorlar davlat amaliyotiga kiritilgan. Bu o'z navbatida, qonun va adolatni ta'minlashga qaratilgan tizimning mustahkamlanishini anglatadi.

Ushbu bobning ikkinchi qismida diniy ulamolarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rni ochib berilgan.

Uchinchi paragrafda esa, davlat boshqaruvidagi diniy unvon va mansablar va unda din vakillarining o'rni tahlil qilingan.

Markaziy Osiyo xonliklarida diniy mansab va unvonlar mazmunan deyarli bir xil bo'lib, ularni berilgan vazifalar orqali farqlash mumkin edi. Diniy tashkilotlardagi ahamiyatli lavozimlarga shayx ul-islom, xo'ja kalon, xalifa, a'lam, shayx, oxund, sudur, o'roq-oliy, naqib, mavlo, mudarris, domulla, imom, imom-xatib kabilar kiritilsa, ularning har biri o'z maqomi va vazifasiga ko'ra jamiyatda muayyan o'ringa ega edi. Tarixiy manbalarga ko'ra, diniy lavozimlardan shayx ul-islom, xo'ja kalon, xalifa va boshqa yuqori mansabdorlar mahalliy xalqning eng ishonchli vakillari hisoblangan.

Umuman olganda aksariyat holatlarda diniy unvon va mansablarga "shayx", "valiy", "azizon" atamallari qo'shib aytilgan. Tasavvufga oid manbalarda keltirilishicha, "shayx" so'zi keksa ota, istilohda kamolot darajasini egallagan kishiga nisbatan, "valiy" nisbasining qo'shib aytilishi esa bunday kishilarni voqealarni oldindan aytuvchi, "g'oyib"dan xabar berish qobiliyatiga ega bo'lganlarga nisbatan, "azizon" esa yassaviya tariqatiga mansub shaxslarga nisbatan qo'llanilgan⁴⁷. Muhammad Shayboniyxon ham dastlab yassaviya tariqatining

⁴⁴ Указания в кази калана казию по вопросам взыскания никахана и тарикана // ЎзМДА ф. 125, р. 2, ж. 609. – 1–2-в.

⁴⁵ Каримов Э. Регесты казийских документов и ханских ярлыков Хивинского ханства ХВИА – начала XX в. – Ташкент: Фан, 2007. – С. 29.

⁴⁶ Muhammad Alixon G'afur. Xorazm safari kundaligi (mualliflar N. Polvonov va I. Bekjonov). – Tashkent: Yangi asr avlodi, 2009. – B. 18-21.

⁴⁷ Қандахаров А. Бухоро хонлиги ва унда карманалик шайхлар фаолияти: монография. – Тошкент: Тафаккур каноти, 2018. – Б. 31.

ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Shayx Jamoliddin (vafoti 1505-y.)ning muridi bo'lgan. Shayx Jamoliddinni Shayboniyxon o'zining bosqinchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlamaganligi bois taxminan 1490-yillarda Hirotga surgun qiladi va Shayboniyxon keyinchalik Shayx Mansur degan shaxsni⁴⁸ o'ziga pir deb qabul qilgan.

Demak, mudarrislar amirlikda muhim diniy lavozim va mansablarga tayinlangan. Shuningdek, 22 ta muftidan iborat Fatvo kengashi ham mavjud bo'lgan. Ularning darajalari o'roq va eshikog'asi martabalariga teng edi. Muftilar sadr, sudur, shayx ul-islom, naqib va mirasad mansablarigacha ko'tarilgan. Shariy imtihondan o'tgan mudarrislar ushr hisobidan maosh olishar edi. Mudarrislar yana "banoraspush" (banorasli to'n kiyganlar) – 200 nafar va "behasabpush" (beqasam to'n kiyganlar) – 300 ga yaqin domulladan iborat guruhlariga bo'lingan⁴⁹.

XULOSA

Buxoro xonligi (amirligi) davlat boshqaruvi siyosiy-huquqiy asoslari mavzusidagi tadqiqot ishi yuzasidan quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

Muhammad Shayboniyxonning faqatgina yurishlar qilib mamlakat sarhadlarini kengaytirishga intilgan sarkarda sifatida emas, balki uni ma'rifatli hukmdor siymosida ham tasavvur etish mumkin. Hatto uning doimiy raqibi Zahiriddin Muhammad Bobur ham uning keng dunyoqarashi va chuqur bilimi to'g'risida shunday degan edi: "Muhammad Shayboniyxoning olamda bir yaxshi ishi juda ko'p narsani bilganligidir". Fazlulloh Ibn Ro'zbehonning ham o'z asarini yozish chog'ida Muhammad Shayboniyxon tomonidan Dashti Qipchoqqa qilingan yurishlari paytida to'plangan shu o'lkaning tarixi, geografiyasi, tabiati, xalqlari urf-odatlarini, iqlimi, suv zahiralari haqidagi ma'lumotlaridan foydalanganligi bayon etilgan.

Ashtarxoniylarning davlat tizimi va ma'muriy boshqaruvi o'z tuzilishi hamda mazmun-mohiyatiga ko'ra, shayboniylar davri davlatchiligidan deyarli farq qilmas edi. Manbalarning ma'lumot berishicha, XVII-XVIII asrning birinchi yarmi davlat boshqaruvida hokimiyat markazda ham, viloyatlarda ham asosan bir idora – dargohda mujassamlashib borgan. Shuningdek, shayboniylar davrida bo'lgani kabi ashtarxoniylar davrida ham davlat tizimida o'troq turmush tarzi an'analari bilan birga ayrim yarim ko'chmanchilarga xos udumlar ham saqlanib qolgan. Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligi hududi juda qisqarib ketdi. XVII asr boshlarida xonlikka bo'ysunuvchi oltita viloyat – Buxoro, Samarqand, Sagaraj, O'ratepa, Shahrisabz va G'uzor viloyatlari tilga olinadi xolos. Keyinchalik Imomqulixon tomonidan Hisor, Toshkent, Turkiston, Farg'ona, Balx viloyatlari qayta bo'ysundirilgan bo'lsa-da, Xurosondagi bir necha yirik viloyatlar va Xorazm butunlay Buxoro xonligi tarkibidan chiqdi.

Buxoro amirligidagi eng yuqori unvon va mansablar, avvalo, mang'it urug'i vakillariga, sayyidlarga, xo'jalarga hamda ulamolarga berilgan bo'lib, davlatdagi eng yuqori unvon amir ul-umaro, otaliq, hokim (valiy, bek), qo'shbegi va devonbegilar bo'lgan. Davlat amir, amir ul-umaro tomonidan boshqarilib, u

⁴⁸Муҳаммад Олим Шайх. Ламаҳот. Яссавия тариқати пирлари мақомоти. Форс тилидан К. Каттаев ва А. Нарзуллаевлар таржимаси. – Самарқанд, 2007. – Б. 115.

⁴⁹Тарих-и нофеи. – Б. 33-35.

amalda va rasman cheklanmagan huquqlarga ega bo'lgan. Oltin O'rda davlatida joriy etilgan otaliq unvoni mang'itlar davriga kelib otaliqqa olingan shaxsning maslahatchisi va ishonchli vakili, harbiy va ma'muriy ishlarda asosiy vakiliga aylandi. Amir Shohmurod davrida otaliqning vakolatlari cheklanib, unga Zarafshon daryosi suvining taqsimotini nazorat qilish, Buxoro kanali (rud-i shahr) va dorug'alik vazifasi yuklanadi.

Tabaqaviylik tizimi mustahkam ildiz otgan O'rta Osiyo xonliklari qatorida, Buxoro xonligida ham asrlardan saqlangan, an'anaviy tabaqaviy huquq va imtiyozlar bilan himoyalangan, huquq va majburiyatlari odat yoki qonun bilan mustahkamlangan ijtimoiy tabaqa va qatlamlar mavjud edi. Shularning orasida ruhoniylar qatlami ko'p sonli va ta'sir doirasi keng bo'lgan tabaqa hisoblangan. Ruhoniylar aholining o'ziga xos savodli, intizomli, vaqf mulklaridan ta'minot oluvchi tabaqasi sanalib, o'sha davrda son jihatdan aholining 3% ini tashkil etgan. Ruhoniylar orasida ulamolar, ya'ni islom ilohiyotchilari, huquqshunos va olimlar jamoasi jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida kuchli ta'sirga ega bo'lib qolgan. Zero, islom dini jamiyatning asosiy mafkurasiga aylangan bir sharoitda, jamiyatning barcha sohalarida din va odatlar asosida o'rnatilgan normalar, tartib qoidalarga amal qilish va ularning barqaror rivojida ulamolarning roli muhim bo'lgan.

Tarixiy manbalarning tahlili shuni ko'rsatadi-ki, Buxoro xonligi davlatchilik tarixida sud tizimi jarayoni hamda jinoyat va jazoga oid masalalar alohida tadqiqot mavzusi sifatida ham talqin qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki bizning fikrimizcha ushbu masalalarni tahlil qilishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan bir qancha jihatlar bor bo'lib, jumladan, xonlikda sud va sudlovga oid bo'lgan tarixiy-huquqiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish, o'zbek xonliklarining sud va sudlovga oid masalalarini solishtirish va ularni ilmiy tahlil etish, Buxoro xonligi (amirligi) da sud ishlarini yuritilishining o'ziga xos jihatlarni yoritish, xonlikda sud hokimiyatining o'rni va ahamiyatini aniqlab olish, sud hokimiyatining saroydagi boshqa amallar bilan aloqasi, sud hokimiyatida tegishli mansabdorlarning vakolat doirasi va odil sudning amalga oshirishi kerak bo'lgan imkoniyatlari kabi masalalar yotadi. Shunday ekan, ushbu masalalarni tarixiy xolislik tamoyili asosida tariximizning bir muncha kam o'rganilgan xonlik davrini tarixiy tajribamizning ijobiy va salbiy jihatlarini har tomonlama tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Muhammad Shayboniyxonning davlat boshqaruvi, uning huquqiy holati haqidagi qarashlari Buxorodagi diniy masalalar va shariat huquqi bo'yicha din arboblari, faqihlar va olimlar bilan o'tkazilgan ilmiy munozara va bahslarda shakllangan. Jumladan, Buxoro shahrida o'tkazilgan ilmiy munozaralar, bahslardan birida "Xon Ollohning yerdagi soyasi ekanligi haqida" bahs yuritilganligini ko'rish mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, xon o'zining hokimiyatini bu ilohiy narsa, muqaddas, uning manbai yagona Ollohdur, deya hisoblagan. Albatta, Muhammad Shayboniyxon sulton va amirlar, urug' boshliqlari ichida, qo'shin orasida juda katta obro'ga ega bo'lsa-da, lekin bir vaqtning o'zida qabila boshliqlari, amirlarining manfaatlarini anglagan holda, mavjud tabaqa talablarini ham inobatga olgan.

O'zbek xonliklari ichida dinga moyillik ko'proq Buxoro davlatida kuzatilib, har bir hukmdor o'z mansabini, xavfsizligini diniy hokimiyat orqali himoyalashga harakat qilgan. Shuning uchun ham davlat siyosatida ruhoniylarning o'z o'rni bo'lib, hukmdorlar ularning foydasi uchun ham islohotlar o'tkazishga majbur

edilar. Diniy hokimiyat va uning nufuzi shunchaki bo'lmagan, hattoki har bir hukmdor o'z mansabini, shuningdek, shaxsiy xavfsizligini ta'minlashda din va diniy hokimiyatdan unumli foydalanishgan. Bunday vaziyatda ruhoniylar davlat siyosatida muhim o'rin egallagan. Ular davlat ishi va islohotlarida, shuningdek, shariat qoidalariga asoslangan huquqiy masalalarda faol ishtirok etishib, ularning ijro etilishida muhim rol o'ynagan.

Umuman olganda qozixonalar – bu tarixiy jihatdan ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy institutlar bo'lib, ular o'z faoliyatida turli muammolarni hal qilish, odamlarning huquq va erkinliklarini saqlashda muhim rol o'ynagan. Qozixonalarining asosiy vazifasi odatda nizo va murosalarni hal qilish, inson huquqlarini himoya qilish va adolatli qarorlar qabul qilishdan iborat bo'lgan.

Podsho Rossiyasi Markaziy Osiyo xonliklarini bosib olganidan so'ng rus hukumati tomonidan dastlab o'lkadagi mavjud sud tizimidagi qozikalon lavozimi tugatilib, barcha qozilarning huquqi tenglashtirilgan. Boshqa mustamlakachi davlatlar singari podsho Rossiyasi ham o'z mustamlakasiga aylangan Turkiston o'lkasida dastlab tub joy aholining diniy e'tiqodiga mos ravishda amal qilingan shariat qoidalariga asoslangan qozilik va ko'chmanchi tarzda hayot kechiruvchi aholining urf-odatlariga asoslangan biy sudlarini butunlay tugatmasdan, uni saqlab qoldi. Milliy va diniy tartiblarga asoslangan sudlar faoliyati cheklanib, ular ustidan kuchli nazorat o'rnatildi. Bu o'zgarishlar bosqichma-bosqich, mahalliy aholining noroziligini keskinlashtirmagan holda o'zgartirib borildi. Bundan tashqari shu yo'l bilan podsho hukumati vakillari ko'plab mahalliy aholi o'rtasidagi o'zaro janjal va kelishmovchiliklarga aralashishdan o'zini saqlashga harakat qildi.

Markaziy Osiyoda o'rta asrlar an'anaviy jamiyatining ijtimoiy tarkibi turli va murakkab tuzilishga ega bo'lib, jamiyatda oliy tabaqa yoki "oliynasab" guruhlar, ruhoniylar, savdogarlar va boshqa ijtimoiy qatlamlar o'z o'rniga ega bo'lgan. O'zbek xonliklarida, shu jumladan, Buxoro xonligida ham tabaqaviylik tizimi mustahkam ildiz otgan va an'anaviy tabaqaviy huquq va imtiyozlar bilan himoyalangan edi. Xususan, ijtimoiy hayotda diniy ulamolar tabaqasi alohida o'rin tutgan, chunki ular jamiyatning savodli, intizomli va vaqf mulklaridan foydalangan asosiy tabaqasi hisoblangan. Diniy ulamolar xonlikda aholining 3% ini tashkil qilsada, ijtimoiy-siyosiy hayotda katta ta'sirga ega edi. Shuningdek, islom dini jamiyatining asosiy mafkurasiga aylangan bir davrda ulamolar ijtimoiy, huquqiy va diniy normalarni yaratishda va ularni rivojlantirishda muhim rol o'ynagan. Ulamolar, nasliy mavqe, davlat boshqaruvi pog'onalarida egallagan mansab va huquqlari, moddiy ta'minoti, vazifa va mashg'ulotlari bilan ajralib turgan.

O'rganilgan mavzu yuzasidan quyidagi **taklif** va **tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Davlat boshqaruvining siyosiy-huquqiy asoslari (xonliklar davri bo'yicha) bo'yicha tarixchi, huquqshunos, islomshunos, sharqshunos olimlar bilan hamkorlikda respublika ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazish;

2. Xonliklardagi sudlov ishi, qozixonalar faoliyati bo'yicha muzeylarda maxsus kompozitsiyalar tashkil yetish;

3. O'zbekistonda xonliklar davri davlat boshqaruvi bilan bog'liq unvon va mansablar haqida OAV vositalariga doimiy chiqishlar qilib turish;

4. Sud va sudlov masalalaridagi qozixonalar faoliyatiga doir yangiliklarni qo'llagan holda yuridik oliygohlarda tarix kurslarida ochiq darslarni tashkil qilish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD 03/27.02.2021.Tar.70.05
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
КАРШИНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

КАРШИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ШИРИНОВ САРДОРБЕК АВАЗОВИЧ

**ИСТОРИЯ ПОЛИТИКО-ПРАВОВЫХ ОСНОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО
УПРАВЛЕНИЯ БУХАРСКОГО ХАНСТВА (ЭМИРАТА)
(XVI – начало XX вв.)**

07.00.01 – История Узбекистана

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по
ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Карши – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2022.4.PhD/Tar1241.

Диссертация выполнена в Каршинском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.qarshidu.uz) и на веб-странице Информационно-образовательного портала «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Бердиев Жамшид Панжиевич
доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент

Официальные оппоненты:

Худойкулов Тулкин Дустбобоевич
доктор исторических наук, профессор

Холикулов Ахмад Боймахамматович
доктор исторических наук, профессор

Ведущая организация:

Бухарский государственный университет

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета по присуждению учёных степеней под номером PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 при Каршинском государственном университете, в 9:00 часов « 12 » 01 2026 года (Адрес: 180119, г. Карши, ул. Кучабог, 17. Тел.: (+998 75) 221-21-04; факс: (+998 75) 220-02-10; e-mail: kasu_info@edu.uz) Каршинский государственный университет.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского государственного университета (зарегистрирован под номером 911). (Адрес: 180119, г. Карши, ул. Кучабог, 17. Тел.: (+998 75) 221-21-04).

Автореферат диссертации распространен « 5 » 31 января 2026 года (протокол реестра № 1 от « 5 » 31 января 2026 года).



Б.Дж. Эшов

Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, д.и.н., профессор

Н.Н. Раджабова

Секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, к.и.н., доцент

Ю.А. Эргашева

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, д.и.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Государственное управление – это механизм, который формировался и постоянно совершенствовался посредством различных теорий, от древней политической мысли до современной концепции «интегрированного управления». Такие теории делают акцент на объяснении политических, экономических и социальных функций государства, усиливая взаимосвязь между этими функциями. В настоящее время процессы модернизации, глобализации и технологического прогресса предъявляют новые требования к государственному управлению. В частности, инновационные подходы, общественное участие, быстрое и прозрачное принятие решений признаются основой развития общества. В этой связи вопросы анализа исторического формирования структур государственного управления, их адаптивного характера, специфики функций, выполняемых каждым органом государственного управления, остаются актуальными и сегодня.

В частности, важно проанализировать центральные, местно-административные низовые и высшие органы Бухарского ханства, звания и должности в государственном управлении, а также руководство религиозными организациями. Эти вопросы помогают понять изменения и развитие государственного управления и общественных систем в мировой историографии. Расширение географии международных связей Узбекистана, особенно то, что ведущие ученые России, Китая, Японии, США и ряда европейских стран уделяют особое внимание исследованиям в области государственного управления в Бухарском ханстве, и эти исследования посредством существующих научных взглядов, источников, динамики основных подходов и сравнительного анализа способствуют выявлению и обобщению методов государственного управления в этих регионах.

Научное исследование истории узбекской государственности, ее справедливая оценка и творческое использование накопленного опыта имеют важное значение для общественно-политического и культурного развития независимой Республики Узбекистан. Как отметил Президент Ш.М. Мирзиёев: «В процессе строительства нового общества изучение и использование богатых культурных и творческих традиций истории нашего народа имеет огромное значение»¹. Поэтому к началу XXI века всестороннее изучение истории Узбекистана, в частности истории узбекской государственности, являющейся неотъемлемой частью мировой цивилизации, поднялось на уровень государственной политики.

Данное диссертационное исследование в определенной мере служит реализации задач, изложенных в Концепции административной реформы в Республике Узбекистан, Указах Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi 4947-son Farmonining 1-ilovasida keltirilgan. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-sonli Farmoni.

2022-2026 годы», от 10 февраля 2021 года № ПФ-6166 «О дополнительных мерах по усилению персональной ответственности руководителей органов государственного управления и органов исполнительной власти на местах в эффективной организации исполнения актов законодательства», от 19 мая 2020 года № ПФ-5997 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности органов и учреждений юстиции по реализации государственной правовой политики», а также распоряжение Администрации Президента Республики Узбекистан от 5 января 2019 года № 2ab22-х «Об эффективной организации работы по изучению истории Узбекистана», указанной в «Дорожной карте», а также в нормативно-правовых документах, касающихся данного направления.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики: «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном и образовательном развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Анализ исторических трудов по историографии темы показал, что данный вопрос не получил полного освещения в литературе как самостоятельный объект. Однако некоторые аспекты темы нашли отражение в исторической литературе. Поэтому их можно условно разделить на несколько групп по периодизации: к первой группе относятся издания, изданные в годы Российской империи и Советской власти; ко второй группе относится литература, изданная в годы независимости и проведенные исследования в Республике Узбекистан; к третьей группе относится литература зарубежных ученых по истории Бухарского ханства (эмирата).

В то же время следует отметить, что эти литературы различаются и в научно-методическом и концептуальном плане.

К *первой группе* литературы относятся труды русских военных, путешественников, послов и русских ученых-исследователей, в XX веке вопросы периода Шейбанидов в царской и советской историографии вызывала большой интерес у востоковедов, главной причиной этого были особенности исторических процессов после эпохи Тимуридов².

Схожие исследования отражены и в трудах представителей царской администрации, таких как А. Гребенкин, Н. Ханыков, А. Хорошхин и др.

² Неболсин П.И. Очерки торговли России с Средней Азией / Зап. РГО. Кн. X. – Санкт-Петербург, 1855 – С. 1-355; Ёша муаллиф. Следование караванов из Бухары в Россию и обратно (Очерки торговли России со странами Средней Азии, Хивой, Бухарой и Кокандом). – Санкт-Петербург, 1856. – 376 с.; Борнс А. Путешествие в Бухару. Ч.И. – Москва, 1848. – 528 с.; Ч.ИИ. – Москва, 1849. – 628 с.; Вамбери А. Путешествие в Средней Азии. – Санкт-Петербург, 1865. – 348 с.; Грулев М.В. Амударя. – Ташкент, 1900. – 92 с.; Губаревич-Радобылский А. Экономический очерк Бухары и Туниса. – Санкт-Петербург, 1905. – 372 с.; Костенко Л.Ф. Путешествие в Бухару русской миссии в 1870 г. – Санкт-Петербург, 1871. – 13 с.; Семёнов-Тян-Шанский В.П. Россия. Полное геогр. Описание. Т.19. Туркестанский край. – Санкт-Петербург, 1913. – 860 с.; Яворский И.Л. Путешествие русского посольства по Афганистану и Бухарскому ханству в 1876-1879 гг. Т.1. – Санкт-Петербург, 1882. – 387 с.

Исследования по хозяйственной и бытовой жизни населения Бухарского ханства в целом освещены в трудах некоторых русских востоковедов³.

